

745
M-63

I.M. Marasulova,
R.R. Jabbarov

AMALIY BEZAK SANA'ATI



743
11-63

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

I.M. Marasulova, R.R. Jabbarov

AMALIY BEZAK SAN'ATI

fanidan darslik

60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

14052/68 -

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Toshkent-2023

«Yangi chirchiq prints»

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K 745/749

KBK85.12

M-63

I.M. Marasulova, R.R. Jabbarov / Amaliy bezak san'ati. / Darslik. - Toshkent: «Yangi chirchiq prints», 2023. — 260 bet.

Mazkur darslik "60111200 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda amaliy va badiiy bezak san'ati bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar yoritilgan. Darslikda amaliy va badiiy bezak san'ati haqida dastlabki ma'umotlar, amaliy va badiiy bezak san'ati fanining predmeti, plakat shriftini yozishni o'rganish va uni oddiy naqsh elementlari va namunalarini chizish, boyash va pardoqlash (1-10 gullar), hajimli buyumlar (uy-ro'zg'or, sovg'a, sport, esdalik buyumlari va h.k.), rangshunoslikka oid turli mashqlar bajarish, namuna asosida harflar va sonlarni yozish hamda rangda bo'yash, murakkab reklama harflari asosida to'liq alfavit va sonlarni yozish, rangda bo'yash, yozuv kompozitsiyasi — e'lon, shior, tabrik matni yozuvlarini yozishni o'rganish kabi ko'plab mavzular nazariy va amaliy jihatdan bayon qilingan.

Darslikdan "60111200 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari qatorida, undan sirtqi, kechki bo'limi talabalari, ilmiy izlanuvchilar, kasb-hunarga tayyorlash markazlari, litseylar, ixtisoslashgan san'at maktablari, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari, sinfdan va maktabdan tashqari muassasalarning to'g'arak rahbarlari va havaskor hunarmand usta hamda rassomlar foydalanishlari mumkin.

TAQRIZCHILAR:

ChDPU, San'atshunoslik fakulteti Tasviriy san'at va dizayn kafedrasi p.f.n. professor.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi

K. Behzod nomidagi MRDI, San'atshunoslik fakulteti, Muzeyshtunoslik kafedrasi dotsenti,

B.B. Baymetov

s.f.f.d (PhD)

K.S. Nishanova

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug'i ga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (Ro'yxatga olish raqami 314-232)

ISBN 978-9910-9966-7-2

© I.M. Marasulova va b., 2023
© «Yangi chirchiq prints», 2023

KIRISH

Bugun har bir o'quvchi va tarbiyachi, oliyog' donlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'ngi ijodiy yutuqlarni o'quv jarayonlariga tatbiq etib oladigan, chuqur bilim va dunyog'arash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak.

Shavkat Mirziyoyev,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va isiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu ma'noda, Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha ijodiy islohatlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida o'zining ijodiy natijalarini bermoqda. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni dunyoning ilg'or, demokratik davlatlari darajasiga yetkazish va yosh kadrlarni yuksak ma'naviy, axloqiy, yuqori bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'ydi.

“Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'quvchilar va ilmiy-ijodiy ziyollarnimiz esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz”.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'quvchi va murabbiylar kunga bog'langan tantanali marosimidagi “O'quvchi va murabbiylar — yangi O'zbekistoni

Ta'limning barcha yo'nalishlari, xususan tasviriy va amaliy san'atda ham oxirgi vaqtda talaygina amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, yangi turdagi ta'lim standartlari o'quv reja va dasturlar tuzilib, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning dolzarb muammolarini hal etishda muhim o'rin tutmoqda.

Kadrlar tayyorlash mazmuni va tuzilmasini yangilash, uni maorif, fan, texnika, texnologiya, iqtisod, madaniyat sohalarida respublika hamda xorijda erishilgan yutuqlar asosida qayta ko'rib chiqish, ta'lim tizimini isloh qilish, uning yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui tarzida muttasil rivojlanib borishini ta'minlash, davlat ta'lim standartlarini yaratish va amalga kiritishning ilmiy asoslarini, ishlab chiqish, ta'lim tizimi, ilm-fan, ishlab chiqarishga turli darajadagi kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish, milliy uyg'onish makurasi asosida o'quvchi-yoshlar hamda mutaxassislarni tarbiyalashning surunkali dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi o'quv-tarbiya jarayonlarini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash jarayonini o'quv-dasturiy hujjatnomalar, didaktik va uslubiy jihatdan ta'minlashni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot ishlari asosida rejalashtirish va ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quv jarayonining axborot bilan ta'minlanishini yuksaltirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarning shaxsiy xususiyat va qobiliyatlarini, shuningdek, yetuk mutaxassisning shakllanishi, o'qishi, tarbiyasi va mehnatini baholash muammolari bo'yicha psixologik-pedagogik tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoni sifatini xolis baholash tizimini yaratish va amaliyotda qo'llash hamda shunga o'xshash boshqa yechimini kutib turgan muammolarni bartaraf etish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" mavzusidagi ma'ruzasi. //Ma'rifat, 2020-yil, 30-sentyabr.

zamonaaviy ehtiyojlarga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalardagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish borasida izlanishlar olib borilmoqda va mavjudlari dartaraf qilinmoqda².

Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti jisim va buyunlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar borliqqa ego'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlardan orqali qarashga undaydi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda amaliy bezak san'ati fani alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga badiiy ma'lumot berishda tabiat unsurlarini stillashtirish mashg'ulotlarining ahamiyati benihoya katta bo'lib, bu ularning umumiy dunyogazashlarini o'stirishda muhim. Yozuv kompozitsiyasi, yozuvlarni yozishni o'rganish, oddiy naqsh namunalarni chizish, boyash va pardozlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish,

²2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi. -T.: 2017.

kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari, harakatlar strategiyasi hamda yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kliboxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalari negizini tashkil qiladi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarbligicha qolib kelmogda. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immunitet ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, 2020-yil 25-dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston yoshlari forumiga Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurib, mamlakatimizda birinchi bor o'tkazilayotgan ushbu anjuman bilan barcha yoshlarni tabriklab so'zlagan nutqida ham o'z ifodasini topgan.

“Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan maralar qo'yganimiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik.

Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmogdamiz.

Ishtonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatandparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar” — deya ta'kidlab o'tdi.³

Albatta bularning bari bugungi kunning dolzarb vazifalariga aylanib, prezidentimiz va hukumatimizning doimiy e'tiborida, boshqa farmon va qarorlarda o'z aksini topmogda.

Go'zallikni his qila olishni rivojlantirish, yuqori estetik didni shakllantirish, san'at asarlarini, tarixiy va me'morlik yodgorliklarini, ona tabiat go'zalliklarini, boyligini tushunish va kadrlarni shakllantirish maqsadida har bir o'quv fani, ayniqsa shaxsning bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan va katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, estetika kabi fanlar inqiloblaridan unumli foydalanish kerak.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atini o'rganish yoshlarga atrofdagi jismlarning stilashirgan holda, badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish, san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muhabbatni rivojlantirish, amaliy bezak san'atida kompozitsiya masalalari, naqsh turlari, badiiy naqshlilikda zamonaviy ramzlar, o'quv va tarbiyaviy jarayonda amaliy bezak san'atining o'rni, amaliy bezak san'atida kompozitsiya, interer va ekstererda badiiy bezash bilan tanishtirish orqali nazariy jihatdan o'rgatadi hamda ularning estetik didlarini o'stirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqazo etib, pedagoglar, olimlar, ustalar va rassomlar zimmasiga mas'uliyatli va ayni paytda sharaflari va yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Yoshlarga yuqori darajada ta'lim-tarbiya berish — bo'lajak rassom-pedagogdan amaliy bezak san'ati sohasida amaliy malakalarini yuqori darajada egallagan bo'lishdan tashqari, psixologiya sohasida ham yetarli ma'lumotga ega

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 2020-yil, 26-dekabr.